

**DASTXAT MATNLARIDA MUROJAAT SHAKLLARINING QO‘LLANISHI**

Ergashov Ulug‘bek, magistrant,  
Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston, Farg‘ona sh.

**Annotatsiya:**

Har qanday muloqot jarayonida murojaat shakllari albatta ishtirok etadi. Murojaat inson nutqiy jarayonining ajralmas qismidir. Murojaat shakllari so‘zlovchi bilan tinglovchining o‘zaro munosabatini bildiradi. U gap tarkibida kelib, o‘zi ishtirok qilgan gapning mazmuniga tegishli bo‘ladi. Murojaat shakllari gap bo‘laklaridan maxsus ohang bilan ajratib aytiladi. Maqolada dastxat matnlarida murojaat shakllarining qo‘llanishi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** matn, dastxat, murojaat, murojaat shakli, dastnat matnlari.

**KIRISH**

Murojaat shakllari dastxat matnlarida faol qo‘llaniladi. Dastxatlar olishdagi muloqot to‘g‘ridan-to‘g‘ri kechadi. Chunki adresatga adresant tanish bo‘ladi. Adresant ham adresat bilan muloqotga kirishar ekan, uning shaxsiyati bilan qiziqadi. Bu unga uslub va mezonini belgilab olish uchun kerak bo‘ladi.

Vaziyat taqozosiga ko‘ra muloqot ba‘zan salomlashishdan oldin, ba‘zan salomlashishdan keyin adresatga qarata qilingan da‘vat, chaqiriq bilan boshlanadi va bu “murojaat” deb ataladi.

Murojaat shakllari muomala madaniyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, bu bilan adresant adresatga o‘z munosabatini ifoda etibgina qolmay, o‘zining madaniyat darajasi va umumiy saviyasini ham namoyish etadi. Murojaat shakllari barcha xalqlarda muloqotni zarur tarzda olib borish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, murojaat orqali adresatning ijtimoiy guruhga mansubligi, yoshi, jinsi, ijtimoiy funksiyasi va boshqa funksiyalari ifodalanishi mumkin[1].

**ASOSIY QISM**

O‘zbek muloqot xulqidagi bu ko‘rinish bevosita adresant-adresat munosabati bilan hosil bo‘ladigan dastxatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Adresant murojaati va adresat murojaat shakllari orqali dastxatlar yagona bir matn sistemasini hosil qiladi. *Do‘stim, azizim, qadrdonim* kabi murojaat shakllari dastxatlarda juda ko‘p uchraydi. Masalan:

*Azizim, do‘stim, yomon kunimda ham, yaxshi kunimda ham doimo hamrohim Qahramonga chin yurak mehri bilan Rauf Parfi.12. 02.84.* (Shaxsiy arxivdan).

Ko‘rinadiki, mazkur dastxatda biz yuqorida sanab o‘tgan murojaat shakllari qo‘llanilgan. Murojaat har qanday holda ham adresat diqqatini tortish uchun xizmat qilar ekan, unda ta‘kid mavjud bo‘ladi. Bu ta‘kid murojaat shakli uyushiq qo‘llangan hollarda yanada kuchliroq intonatsiya bilan talaffuz etiladi va shu tufayli ekspressiv-emotsionallikdagi daraja ham ko‘tariladi. Murojaat shaklida doimo kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar o‘z ifodasini topadi. Bavosita dastxatlar ham jamiyatdagi shaxslarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib

yoziladi. Shu bois ham yozilgan dastxat matnlarida murojaat shakllari o'sha davrning ijtimoiy hayotini ham ifoda etadi.

**Bulardan ma'lum bo'ladiki, dastxatlarda adresant shaxsi muhim o'rin tutadi. Adresantning ijtimoiy mavqei bevosita adresatlarga bergan dastxatlarida aks etadi:**

*O'zbekning ulug' farzandi Bobur Mirzo izidan yurib, uning nomini hammmamiz nomimizdan e'zozlayotgan Zokirjon Mashrabov rahbarligidagi Bobur ekspeditsiyasi a'zolariga olam-olam ezgu niyatlarimiz yor bo'lsin. Ular mehnati bilan bunyod bo'lgan ushbu koshona hammamizga muborak bo'lg'ay.*

*Sog'-salomat bo'linglar, azizlar!*

*Naim Karimov, Begali Qosimov. (Bobur va jahon madaniyati muzeyidan).*

**Murojaat shakllari orqali so'zlovchining nutqi shaxslarga qaratiladi. Ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun so'zlovchi tinglovchiga undaydi, unga murojaat qiladi. Murojaat qilingan, undalgan shaxsning ifodasi bo'lgan so'zlar murojaat shakli bo'lib keladi.**

**Murojaat shakli vazifasidagi so'z undash intonatsiyasiga ega bo'ladi. U odatda bosh kelishik shaklidagi (masalan, ega vazifasidagi) so'zga o'xshash bo'ladi, lekin boshqa xususiyatlar bilan birga, undash ohangi uning ega vazifasidagi so'zdan farqlanishini ko'rsatib turadi:**

**Ma'muraxon, uyingizda to'y bo'lsin! Hurmat bilan Hosiyat. Imzo. (Shaxsiy arxivdan).**

**Mazkur dastxat matnidagi Ma'muraxon so'zi murojaat shakli vazifasini bajarib kelgan. Bu so'z bosh kelishikda ekanligiga qaramay, ega vazifasini bajarmaydi.**

Murojaat shakllari bir necha ob'ektga qaratilsa yoki bir ob'ektni ifodalovchi murojaat shakllari bir necha so'zdan iborat bo'lsa, ular murakkab murojaat shakllari hisoblanadi. Dastxat matnlaridagi murojaat shakllarini tarkibi jihatdan uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Sodda murojaat shakllari.
2. Tarkibli murojaat shakllari.
3. Murakkab murojaat shakllari.

**Sodda murojaat shakllari.** Adresantning nutqi bir shaxs yo bir predmetga qaratilgan bo'lib, bu shaxs yoki predmet nomini bildiruvchi so'z bir so'z bilan ifodalangan bo'lsa, bunday murojaat shakllari sodda murojaat shakllari deyiladi.

Sodda murojaat shakllari tub, yasama, qo'shma, juft otlar bilan ifodalangan bo'lib, yakka yoki takrorlangan holda keladi. Dastxat matnlarida sodda murojaat shakllari faol qo'llaniladi:

**Domla!**

*Shogirdlarga bo'lgan samimiy muhabbatingiz, bag'rikengligingiz, ajoyib inson bo'lganingiz uchun Alloh meni Sizdek olim bilan uchrashtirgani uchun shukurlar aytib yuruvchi shogirdingiz Nodira Do'stqo'jaev[1].*

Dastxat matnlarida uchraydigan sodda murojaat shakllari gapga ma'lum ma'no, mazmun va ottenka beradi. Mana shu ma'no, mazmun va ottenka, birinchidan, murojaat shakllari ishtirok etgan gap mazmunidan anglashilsa, ikkinchidan, ohang, sub'ektiv baho shakllari va murojaat shakllari tarkibidagi aniqlovchilar, izohlovchilar orqali anglashiladi.

**Tarkibli murojaat shakllari.** Adresantning nutqi bir shaxsga qaratilgan bo'lsa, shu shaxsni bildirgan so'zlar murojaat shakllari vazifasida keladi. Bu murojaat shakllari aniqlovchi va izohlovchilar bilan kengayib kelsa, tarkibli murojaat shakllari deyiladi. Tarkibli murojaat shakllari tarkibidagi elementlarning biri murojaat shakllari bo'lib, qolganlari uning aniqlovchisi, izohlovchisi bo'lib keladi:

*A'lochi qiz Nargizaxonga!*

*Hayotingizda ham hamisha a'lochi bo'ling!*

*O'tkir Hoshimov. (Shaxsiy arxivdan).*

Mazkur dastxatda «a'lochi qiz» birikmasi izohlovchi vazifasida kelib, adresatning adresatga ijobiy munosabatini bildirgan.

*Ustod Abduqayum aka!*

*Sizday donishmand insong, qadrdonligimdan g'ururlanaman!*

*Hurmat bilan:*

*Imzo. Yo'ldosh Sulaymon. 17.11. 90 yil. (Shaxsiy arxivdan).*

Yuqoridagi dastxat matnida ham *Ustod Abduqayum aka* birikmasi orqali tarkibli murojaat shaklini ko'rish mumkin.

**Murakkab murojaat shakllari.** Dastxat matnlaridagi murojaat shakllari murakkab bo'lishi ham mumkin. Adresant o'z adresatiga murojaat qilib, uni turlicha ataydi va unga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi. Natijada adresantning nutqi qaratilgan bir ob'ekt har xil nomlanadi. Bunday vaqtda murojaat shakllari bir ob'ektning turli xil xususiyatlarini ifodalovchi so'zlardan iborat bo'ladi.

Murakkab murojaat shakllari bir shaxs yoki predmetning turli xususiyatlarini bildiruvchi bir necha murojaat shakllarining o'zaro birikib kelishidan hosil bo'ladi. Bu murojaat shakllari ko'pincha lirik asarlarda uchraydi va nutqdagi his-hayajonni, emotsionallikni kuchaytiradi:

*Kamina uchun qadrdon bo'lmish, hurmatli, iqtidorli, kamtarin, xushkalom Ma'muraxon singlimga hamisha ollohdan rizolik tilab, kamoli ehtirom bilan muallif. Imzo. S. Naziriy. 20.08.08. (Shaxsiy arxivdan).*

Berilgan dastxat matnidagi *kamina uchun qadrdon bo'lmish, hurmatli, iqtidorli, kamtarin, xushkalom Ma'muraxon singlimga* birikmasi murakkab murojaat shaklida qo'llanilgan.

Shaxs ijtimoiy muhitning turli soha va kasb vakili sanaladi. Biroq u qaysi kasb vakili bo'lishidan qat'i nazar, atrofdagi kishilar bilan faol va nafaol ravishda kommunikativ faoliyatda bo'ladi. Insonning faoliyati, vazifasi o'zgarishi bilan bog'liq holda uning nutqi ham o'zgaradi, har sohaning o'ziga xos til xususiyatlari – o'z uslubi paydo bo'ladi, u shakllanadi va tobora mukammallashadi. Bu shakllanish va mukammallashishda ona tilining ichki imkoniyatlari, boshqa tillarning ta'siri, ijtimoiy omillar (ekstralingvistik omillar) katta rol o'ynaydi[2]. Bunday holatlar dastxat matnlaridagi murojaat shakllarida ham ko'zga tashlanadi. Zero, adresant va adresat o'rtasidagi muloqot jarayoni murojaat bosqichi bilan boshlanadi hamda ana shu murojaat bosqichida adresant nutqida qo'llangan murojaat shaklidan adresatning qaysi ijtimoiy guruh vakili ekanligi sezilib turadi. Dastxat matnlarida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Olimlar tomondan berilgan dastxat matnlariga e'tibor berilganda, ulardagi murojaat shakllari boshqa kasb egalari muloqot xulqidagi murojaat shakllaridan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turishini ko'ramiz. Ya'ni har bir sohada muloqot o'z qonuniyatlariga, o'z xususiyatlariga ega.

Shuning uchun ham turli xil soha xodimlari o'zlarining sohalarga xos xususiyatlarni o'zlashtirib olishadi-da, ba'zan undan chiqishga qiynalishadi.

Dastxatlar matnida yakka shaxs ma'nosini bildiruvchi murojaat shakllari ko'proq kuzatiladi. Adresatga qaratilgan yakka shaxs murojaat shakllari adresantning adresatga undashini bildiradi.

Adresatga qaratilgan yakka shaxs murojaat shakllari leksik-semantik xususiyatiga ko'ra quyidagi ma'nolarni bildiradi:

**Ism:** *Shahlo! El ardog'idagi erka qiz bo'ling. Muallifdan. Imzo. (Shaxsiy arxivdan).*

**Qarindoshlik:** *O'g'lim Tavakkaljon!*

*Hayot yo'ling doim charog'on bo'lsin.*

**Imzo. (Shaxsiy arxivdan).**

**Yaqinlik, do'stlik:**

Aziz do'stim *Abduqayum.*

*Siz ham bir sinf-bir kursda o'qigan do'stlarimday qadrdon bo'lib qoldiggiz.*

*Omon bo'ling.*

**Imzo. Muallif. 23.08.97. (Shaxsiy arxivdan).**

Shuningdek, muzeylarda, tashkilot va muassasalarda yozilgan dastxatlarda umumshaxs ma'nosini bildiruvchi murojaat shakllari qo'llanadi. Undagi mazmun umumga - ko'pchilikka qaratilgan bo'ladi:

*Maktab jamoasiga o'qish va ijodiy ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.*

*Hurmat bilan N. Quvvatov.*

**Imzo. 2000 y .5 oktabr. (Shaxsiy arxivdan).**

**Yana bir misol keltiramiz:**

*Muhtaram ustozlar! Sizlarga yosh avlodimizni tarbiyalab voyaga yetkazishdek ulug', mas'uliyatli ishlaringizda omad va baxt doimo hamroh bo'lishini tilayman.*

*Hurmat bilan Mashrab Kimsanov. Imzo. (Shaxsiy arxivdan).*

Dastxatlar matnida antroponimlarning faol qo'llanishi asosiy xususiyatlardan biridir. Insonlar nomini ifodalovchi har qanday xususiy ism antroponim deb atalib, ular: shaxsiy ism (Karim, Dilshod), ota ismi (Yusupovich, Qayumjonovich), familiya (Saidov, Jomiev), taxallus (Navoiy, Muqimiy)lar hisoblanadi.

Ot yoki ism insonlar va barcha jonli-jonsiz borliq dunyoning muhim belgilaridan biridir. Insonlar ko'p qadim zamonlardan boshlab nafaqat o'zlarini, balki tevarak-atrofdagi barcha narsalarni belgilash, tanib olish va bildirish uchun muayyan va munosib so'zlar bilan nomlashga intilganlar. Bu esa insonlar turmush faoliyati uchun kerakli va muhim bir ehtiyojga aylanib qolgan. Bugungi kunda kishilar va barcha mavjudotlarning otlari, va, ayniqsa, atoqli otlar har bir tilning muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, dastxat matnlarida antroponimlar doimo faol qo'llanib kelinadi:

*Sohibaxon qizimga baxt va omad hamisha hamroh bo'lsin. O'qish va ishlaringizda ulkan zafarlar tilab,*

*Dilorom. Imzo 10.IX. 2008. (Shaxsiy arxivdan).*

*O'zbek xalqida ismlarni aytib chaqirishda ismlarga hurmat, erkalash, kichraytirish ma'nolarini ifodalovchi qo'shimchalarni qo'shib murojaat qilish odati ham mavjud. Erkak adresatga nisbatan jon, ba'zan xon, xo'ja, hoji (hajga borib kelganlarga nisbatan), bek, boy, to'ra, ali kabi elementlar qo'llaniladi.*

*Kichik yoshdagi adresatlarga nisbatan esa erkalash, kichraytirish ma'nolaridagi toy, sher, -cha, -chik kabi so'z va qo'shimchalar qo'shib murojaat qilinadi.*

*Bu kabi xususiyatlar ijobiy istak birliklarini ifodalab keladigan dastxatlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.*

*Shoir Chorsham' Ro'zievning o'z muxlisiga bergan quyidagi dastxatida ham buni kuzatish mumkin:*

*Komilbekka hamisha bizni yo'qlab turishini va qahqaha otib yurishini tilab hurmat ila*

*Muallif. 11.10.93 y.*

*Imzo. (Shaxsiy arxivdan).*

*Xuddi shunday holat ayol adresatlarga nisbatan qilingan murojaat shakllarida ham kuzatiladi. Lekin ayollar ismlariga qo'shib aytiluvchi qo'shimchalar erkak adresatlarnikiga nisbatan farq qiladi. Adresant tomonidan ayol adresatning ismini chaqirib murojaat qilishda ismga mos keladigan qo'shimchalar qo'shib murojaat qilinadi. -xon, -oy, -bib, -nisa, -gul kabi affiksoidlar shular jumlasidandir:*

*Singlim Gulmiraxon!*

*Avvalo sizga sog'lik, uzoq-umr, kelajakda oilaviy baxt va ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman. Munojot Yo'licheva. 29.03.01. (Shaxsiy arxivdan).*

*Kichik yoshdagi adresant katta yoshdagi ayol adresatga murojaat qilganda adresat ismiga -xon, -oy, -gul so'zlaridan tashqari, -opa, -aya, -xola, -momo kabi qarindosh-urug' nomlarini ifodalovchi so'zlarni qo'shib aytadi. Bu kabi xususiyatlar dastxat matnlarida ham aks etadi:*

*Munisaxon aya!*

*Yaxshi kunlaringiz ko'p bo'lsin.*

*Muallif. (Shaxsiy arxivdan).*

## XULOSA

Dastxatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'tmishga murojaat qilmasdan turib o'rganish mumkin emas. Chunki dastxatlar yozuvning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Dastxatlarni Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Furqat va boshqa allomalarning asarlariga, shuningdek, tarixiy yozma yodnomalarga tayanib, tadqiq qilish zarur. Shuningdek, dastxatlarda har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti ham aks etadi. Chunki o'zbek xalqida azaldan bir-biriga bo'lgan hurmat, izzat kuchli bo'lgan. Yana bir e'tiborli jihati - og'zaki nutqdagi duolar, niyatlar ham biz o'rganayotgan dastxatlarning bir qancha jihatlarini o'zida namoyon qiladi.

Dastxatlar barcha funksional uslublar: rasmiy, ilmiy, badiiy, publitsistik uslublar elementlarini o'zida mujassam etadi. Ayni paytda bu nutq uslublariga o'xshamaydigan o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Bu uni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishni talab etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Неъматова А. Сокин дарё мавжлари. - Т.: Муҳаррир, 2008. –Б. 72.
2. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти // Тошкент: Ўзбекистон, 1995. –Б. 188.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. –Т.: 1999. – 86 b.
4. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Т.: Fan, 1981. – 59 b.
5. Jumaniyazova, N. A. (2021). Kitob Tarixi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 942-944.
6. Nargiza abdug'ofurovna, J. (2023). PSIXOLOGIIYADA INSONLARNI BOSHQARISH USULLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 19-23.
7. Nargiza abdug'ofurovna, J. (2023). О ' . HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" VA U. FOLKNERNING "SHOVQIN VA G 'AZAB" ASARLARINING JANRI VA O 'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 14-18.
8. Жуманиязова, Н. А. (2022). Тилга Ўйибор–Элга Ўйибор. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 130-133.
9. Абдулаттоев, М. (2022). ЛИНГВОПОЭТИКА: ПОЭТИК НУТҚДА ЭКСПРЕССИВ ВА ЭКСТРАЛИНГВИСТИК ВОСИТАЛАР. *Research Focus*, 1(1), 249-254.
10. Umirziyev, U., & Abdurakhmonov, V. (2022). FLOW THEORY. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 261-264.
11. Abdurakhmonov, V. (2022). Functional Specificity Of Alternative Interrogative Sentences. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 82-87.
12. Abdusattorovich, A. V. (2022). Methodological and semantic classification of alternative interrogative pronouns. *Fsu. Scientific News-Научный Вестник. Фергу*, 1.
13. Abdurahmanov, V. A. (2022). M Bisubstantivation in alternative interrogative sentences. *Issues of linguistic theory and practice*.
14. Abdupatov, M., & Abdurahmonov, V. (2021). Microtext composition. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 466-473.
15. Abdusattorovich, A. V. (2022). EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FAMILY IN PROVERBS AND SAYINGS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 286-289.
16. Polvonova Mahfuza Rakhmatovna, A. Sh. Bazarbayeva. CONTRADICTION RELATIONSHIP IN COMPOUND SENTENCES / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences / VOLUME 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 766 w October 2022 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)
17. Polvonova Makfuza Raxmatovna. REPRESENTATION OF THE CONTRADICTION RELATION IN ENGLISH CONNECTED ADJUNCTS International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education /LONDON CONFERENCE, <https://conferencea.org> May 10th 2023, 34
18. Hojiev A. O'zbek tilida so'z yasalishi: (Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qo'llanma). – Т.: O'qituvchi, 1989. – 112 b.

- 
19. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O‘ME davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 168 b.
20. Hojiev A., Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uni o‘rganishning aktual masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1982. - №5. – B. 11-17.